

BANK TIZIMI VA MOLIYA BOZORLARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK

Sodiqova N.T

Ilmiy rahbar.

Irgasheva Feruza

Osiyo xalqaro universiteti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15512363>

Annotatsiya. Mazkur maqola bank tizimi va moliya bozorlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilishga bag'ishlangan. Maqolada, avvalo, bank tizimi va moliya bozorlarining funksiyalari va asosiy faoliyatlari ko'rib chiqiladi. Banklar pul mablag'larini yig'ish, kreditlar berish, va to'lov tizimlarini amalga oshirish orqali iqtisodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlaydi, moliya bozorlari esa investitsiyalar va kapital ajratish jarayonlarini tashkil etadi.

Maqolada bank tizimi va moliya bozorlari o'rtasidagi bog'liqlikning asosiy jihatlari, jumladan, likvidlik ta'minoti, kredit tizimi, inflyatsiya va foiz stavkalarining o'zaro ta'siri, risklarni boshqarish, hamda iqtisodiy o'sish va barqarorlikni qo'llab-quvvatlash jarayonlari muhokama qilinadi. Ushbu aloqalar orqali banklar va moliya bozorlari bir-birini to'ldiruvchi va ta'sir etuvchi tizimlar sifatida iqtisodiy rivojlanish va barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'yashadi. Maqola bank tizimi va moliya bozorlari o'rtasidagi murakkab o'zaro aloqalarni tushunish uchun foydali manba bo'lib, iqtisodiy siyosat va moliyaviy nazoratni yaxshilashga doir tavsiyalarni taqdim etadi.

Tayanch so'zlar: likvidlik, kredit, foiz stavkalari, iqtisodiy o'sish, moliya bozorlari

Аннотация. Данная статья посвящена анализу взаимосвязи между банковской системой и финансовыми рынками. В статье рассматриваются основные функции и деятельность банковской системы и финансовых рынков. Банки поддерживают экономическую активность через сбор денежных средств, предоставление кредитов и осуществление платежных систем, в то время как финансовые рынки организуют инвестиционные процессы и привлечение капитала. В статье обсуждаются ключевые аспекты взаимосвязи между банковской системой и финансовыми рынками, включая обеспечение ликвидности, кредитную систему, взаимное влияние инфляции и процентных ставок, управление рисками, а также поддержку экономического роста и стабильности. Эти связи подчеркивают, что банки и финансовые рынки являются взаимодополняющими и взаимно влияющими системами, играющими важную роль в обеспечении экономического развития и стабильности.

Статья служит полезным источником для понимания сложных взаимосвязей между банковской системой и финансовыми рынками, а также дает рекомендации по улучшению экономической политики и финансового регулирования.

Ключевые слова: ликвидность, кредиты, процентные ставки, экономический рост, финансовые рынки.

Abstract. This article is dedicated to analyzing the interconnection between the banking system and financial markets. The article discusses the main functions and activities of the banking system and financial markets. Banks support economic activity through the collection of funds, the provision of loans, and the implementation of payment systems, while financial markets organize investment processes and capital allocation. The article addresses key aspects of the relationship between the banking system and financial markets, including liquidity provision, the credit system, the mutual impact of inflation and interest rates, risk management, as well as supporting economic growth and stability. These connections highlight that banks and financial markets are complementary and mutually influencing systems, playing a crucial role in ensuring economic development and stability. The article serves as a useful resource for understanding the complex interrelationships between the banking system and financial markets, and provides recommendations for improving economic policy and financial regulation.

Keywords: liquidity, credit, interest rates, economic growth, financial markets.

Mamlakatimizda tanlangan iqtisodiy rivojlantirishning o‘z modeli va uning tamoyillari asosida ishlab chiqilgan, chuqur va har tomonlama o‘ylangan mamlakatni isloh qilish va modernizatsiyalashning tadrijiy dasturi izchil amalga oshirilishi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining O‘zbekiston iqtisodiyoti, uning moliya va bank tizimiga salbiy ta’sirini sezilarli darajada kamaytirish imkonini bergenligi qayd etildi.

Banklarning moliya bozoridagi faoliyatini tartibga solish va fond bozori kapitalizatsiya darajasini, ishtirokchilarining, shu jumladan, xorijiy investorlarning investitsion faolligini ushlab turish murakkab muammolardan hisoblanadi. Bu muammolarning samarali yechimi moliya bozorida banklarning raqobatbordoshliligi va xavfsizligi, barqarorligi va likvidliligi, investorlar uchun jalbdorliligi va risksizligi darajasini ta’minlash bilan uzviy bog‘liq.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev, “Hukumat va Markaziy bank xalqaro moliya institutlari ko‘magida bank-moliya tizimini rivojlantirish bo‘yicha uzoq muddatlari strategiya ishlab chiqishi lozim.

Bunda bank tizimiga xususiy va xorijiy kapital kirib kelishi hisobidan biz davlat banklari ulushini bosqichma-bosqich kamaytirib boramiz. Bu esa sohada raqobat muhitini yaxshilashga, tijorat banklari faoliyatini, kreditlash sifati va madaniyatini har tomonlama oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, moliya bozorlari, jumladan, fond bozorini rivojlantirish ham yangi iqtisodiy sharoitda asosiy maqsadlarimizdan biri bo‘lishi kerak. Yangi moliyaviy instrumentlarni joriy etish va obligatsiyalar chiqarish orqali, bank xizmatlari ko‘lamini yanada kengaytirish, ilg‘or axborot texnologiyalari asosida bank tizimini rivojlantirish zarur.”, deb ta’kidlaganlar.

Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida tijorat banklarining moliya bozoridagi faoliyati yuqori daromad keltiruvchi yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi va banklarning likvidliliginini ta’minlaydi. Banklarning moliya bozoridagi faoliyati turli xil qimmatbaho qog‘ozlar: oddiy va imtiyozli aksiyalar, obligatsiyalar, davlat qarzdorlik majburiyatları, depozit sertifikatlari, veksel va boshqalarga mablag‘larini qo‘yish orqali amalga oshiriladi.

O‘z likvidliliginini ta’minalash maqsadida banklar uncha katta bo‘lmagan summani boshqa qimmatli qog‘ozlarga: bank aktseptlari, qimmatli qog‘ozlar bozoridagi tijorat qog‘ozlarini, brokerlik ssudalar va tovar-kredit korporatsiyalarini sertifikatlariga qo‘yishadi.

Daromadlikni ta’minalash maqsadida, lekin likvidliligini xavf ostiga qo‘ygan holda banklar o‘z mablag‘larini ba’zi bir hukumat muassasalari obligatsiyalarini va korporatsilarning birinchi darajali obligatsiyalariga investitsiya qiladilar.

Tijorat banki fond bozori ishtirokchilaridan biri bo‘lib, qimmatli qog‘ozlar bilan emitent, investitsiya, brokerlik, dilerlik faoliyatini amalga oshiradi, shuningdek, ular bilan boshqa operatsiyalarni amalga oshiradi. Banklar moliya bozorida moliyaviy vositachi va professional ishtirokchi sifatida faoliyat olib boradi.

O‘zbekistonda moliya bozorining rivojlanishiga bank tizimi katta hissa qo‘shib kelmoqda. Bank sohasining rivojlanishi undagi o‘zgarishlar, moliya bozori bilan chambarchas bog‘liqligi, uning rivojlanishida eng katta omil ekanligi shubhasiz.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bugungi kunda mamlakat bank tizimini xalqaro miqyosga chiqishi va xalqaro moliya bozorlari bilan munosabatlarini takomillashtirish maqsadida tijorat banklarining moliya bozorlaridagi operatsiyalarini rivojlanishini ta’minalash borasida respublika tijorat banklari oldida turgan muammolarni har tomonlama tahlil qilish va bu borada ilmiy taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi.

Bozor munosabatlariga o‘tish bilan ko‘p ukladlik iqtisodiyotning shakllanishi tijorat banklarini tashkil etishga turtki bo‘ldi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish munosabati bilan, birinchi navbatda, bank ishini tashkil etish mazmunini o‘zgartirishga kirishildi. Ko‘p tomli yo‘riqnomalar o‘rniga bank ishlarini yuritishning metodik ko‘rsatmalari tayyorlandi, kreditlashni kredit shartnomasi asosida amalga oshirish yo‘lga qo‘yildi, ko‘pgina operatsiyalardan bank nazorati olib tashlandi.

Tijorat banklari xo‘jalik tashkiloti kabi korxonaning alohida tarkibiy qismi hisoblanadi.

Mustaqil ravishda xo‘jalik faoliyatini yuritib o‘zlarining konkret natijalaridan hamda mijozlarining ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdan manfaatdordir.

Tijorat banklari jamiyatning ijtimoiy bazasini ifoda etib, iqtisodiyotni boshqarishda tizim sifatida qatnashib, Markaziy bankning pul, kredit va foizlar sohasidagi siyosatini tadbiq etuvchisi sifatida faoliyat ko‘rsatadi.

Tijorat banklarini rivojlanishi tor ma’noda bo‘lsa ham ijtimoiy mahsulotning natijasi bo‘lib hisoblanadi hamda tarkibiy qismiga kiradi.

Yuqorida keltirilgan fikirlarimizni tahlil etadigan bo‘lsak, tijorat banklarining mohiyatini ularning milliy iqtisodiyotda bajaradigan roli va funksiyalari ochib beradi. Banklar korxona sifatida o‘z funksiyasining ko‘pchilik qismini ishlab chiqarish, taqsimot, ayriboshlash va ist’emol bilan hamkorlikda amalga oshiradi.

Bozor munosabatlariga o‘tish bilan tijorat banklari o‘z manfaatlari doirasida bo‘sh pul resurslarini harakatga keltiruvchi infratuzilmasining muhim tarkibiy qismiga aylanadi.

Banklarning ikki pog‘onali tizimining paydo bo‘lishi pul muomalasi barqarorligini ta’minalash zarurati orqali paydo bo‘ldi, iqtisodiyotning "sog‘lomligi" ko‘p jihatdan ana shunga bog‘liqidir. Pul aylanishini umumilliy darajada tartibga solish huquqini olgan banklar keyinchalik yoki to‘la davlat banklariga yohud davlat bilan mustahkam bog‘liq bo‘lgan banklarga aylandi. Bu esa ularga davlat pul-kredit siyosatini amalga oshirish imkonini berdi.

Banklarning bajaradigan operatsiyalariga qarab emissiya va tijorat banklariga bo‘linadi.

Har qanday mamlakatda emissiya banklari kredit tizimining markazi hisoblanadi, ularga davlat banknotalar chiqarish, emissiya uchun monopolialik huquqini beradi. Ular boshqa banklarni kreditlaydi va shu ma’noda banklarning banki sanaladi. Bizning mamlakatimizda kredit tizimining markazi, emissiya banki va banklarning banki O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki hisoblanadi.

Tijorat banklari bank tizimining quyi bog‘ini bo‘lib, mijozlarga tijorat tomojyllarida kredit, hisob-kitob xizmatlari ko‘rsatish yuzasidan bevosita vazifalarini bajaradigan mustaqil bank muassasa tarmoqlaridan tarkib topgan.

Tijorat banklari amalda o‘z mijozining xo‘jalik faoliyati xizmati bilan bog‘liq kredit, hisob-kitob va moliya operatsiyalarini barcha turlarini bajaradi. Tijorat banklari sanoat, savdo va boshqa xil korxonalarini asosan omonat tarzida jalb etilgan pul mablag‘lari hisobidan kreditlaydi, korxonalar o‘rtasida hisob-kitoblarini amalga oshiradi, shunindek, fond, vositachilik va valyuta operatsiyalari bilan shug‘ullanadi.

O‘zbekistonda bank tizimini shakllantirishda vujudga kelayotgan boshqa bir muhim muammo – bu tijorat banklarining vujudga kelishi va rivojlanishida davlatning rolidir.

Odatda, ishlab chiqarishning pasayishi va pulning qadrsizlanishiga olib keladigan, butun xo‘jalik tizimi qayta quriladigan bozor munosabatlariga o‘tish chog‘ida bozor infratuzilmasining tarkib topishida davlat tomonidan ko‘mak berilishi zarur hisoblanadi.

Davlatning roli ishlab chiqarishdagi jamg‘arishni jadallashtirishdan, moliyaviy resurslarni jalb etish hamda iqtisodiyotni rivojlantirish uchun ulardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida iqtisodiy va moliyaviy muhitni yaratishdan iboratdir.

O‘zbekistonda davlat ishtirokida ixtisoslashtirilgan moliya muassasalari tashkil etildi, ularning maqsadi uzoq davr mobaynida iqtisodiyotning sarmoyaga bo‘lgan ehtiyojini ta’minalashdan iborat bo‘ldi. Ularning faoliyati, asosan, xususiy sektorning dastavval kichik va o‘rta tadbirdorlikning mavqeyini rivojlantirish va mustahkamlashga qaratildi.

Ixtisoslashish va kredit, investitsiya operatsiyalari vazifalarini iqtisodiyot sektorlari bo‘yicha taqsimlash respublikamizdagi bank muassasalarining o‘ziga xos xususiyati hisoblanadi.

Ularning faoliyati, asosan, ustun tarmoqlar: paxtachilik va uning mahsulotini qayta ishslash bilan bog‘liq ishlab chiqarishlarni, avtomobilsozlikni, uy-joy qurilishini, savdoni va hokazolarni rivojlantirishga qaratildi.

Ayrim banklarning ixtisoslashishi mamlakat uchun hayotiy muhim bo‘lgan iqtisodiyot tarmoqlarining davlat tomonidan qo‘llabquvvatlanishi iqtisodiy jihatdan zarurligi bilan bog‘liqdir. Bunday tarmoqlarni moliyalash davlat bilan birgalikda imtiyozli shartlar asosida amalga oshiriladi. Shu bilan bir vaqtda ixtisoslashtirilgan aksiyadorlik tijorat banklari boshqa tarmoqlaridagi mijozlar bilan kredit va moliyaviy bitimlarni amalga oshirish huquqiga ega. Ular bu huquqdan unumli foydalanmoqdalar ham. Bu esa ularning bozor iqtisodiyotiga barqaror kirib borishini ta’minalaydi.

Markaziy bank tijorat banklarining faoliyati ustidan samarali nazorat qilish, omonatchilar va aksiyadorlarning manfaatlarini himoyalash maqsadida bank nazorati tizimini mustahkamlash yuzasidan muntazam ish olib bormoqda.

Bugungi kunda bank ishi barqarorligini asosi bo‘lgan Markaziy bank nochor banklarni o‘z vaqtida aniqlash va ularga iqtisodiy madad berish, ularning sinishiga yo‘l qo‘ymaslik chora-tadbirlarini ko‘rmoqda, bankrotlik holatlarini kamaytirish va tizimli tavakkalchilikning oldini olishini ta’minlanmoqda. Tijorat banklari soni hozirda ko‘payib bormoqda. Markaziy bank tijorat banklari o‘rtasidagi raqobatni rivojlantirish, ular faoliyatini diversifikatsiyalash va universallashtirish maqsadida bunday ko‘payishga ko‘maklashmoqda. Biroq bu borada hali ko‘p ish qilinishi lozim.

Tijorat banki mohiyatini uning maqsad va vazifalarini yaxshi tushunmaslik tijorat banklari faoliyatida eng ko‘p tashvish uyg‘otmoqda. Bu holat aniq shakllantirilgan va puxta belgilangan rivojlanish strategiyasi yo‘qligida o‘z aksini topayapti. Bu banklar faqat shu kungi foydani o‘ylamoqdalar.

Tijorat banklari faoliyatining asosiy maqsadini umumiyoq ko‘rinishda moliya xizmatlari taklif etish va ko‘rsatish sifatida ifodalash mumkin.

Yangi banklarning muassisalariga qo‘yiladigan talablar Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi va boshqa nufuzli tashkilotlarning tavsiyanomalarini hisobga olib ishlab chiqilgan hamda mamlakatlarida qabul qilingan ehtiyyotkorlik andozalariga mos keladi. O‘zbekistonda bank ochish yetarli ega malakaga bo‘lgan va bank ishi borasida o‘ziga dog‘ tushirmagan omilkor shaxslar uchun imtiyoz hisoblanadi. Sarmoyaning eng past darajasiga qo‘yiladigan talablar asta-sekin oshirib borilmoqda. Bunday yondashuv O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga tijorat banklarining faoliyatini samarali nazorat qilib turishga, banklarda vujudga keladigan muammolarni oldindan ko‘ra bilishga va ularni bartaraf qilish uchun o‘z vaqtida chora-tadbirlar ko‘rishga imkon beradi. Bugungi kunda deyarli barcha banklar aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirilgan yoki shu shaklda ochilgan.

Bu holat qonunlashtirib qo‘yilgan. Respublikaning yirik banklari aksiyadorlashtirilgan va davlat mulkchiligidan chiqarilgan. Banklar faoliyatini tartibga soladigan asosiy me’yoriy hujatlardan biri – bank nazorati bo‘yicha Bazel qo‘mitasi talab va tavsiyalari o‘rganilib, ishlab chiqilgan «Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish qoidalari» hozirgi paytda qayta ishlagan va takomillashtirilgan; bunda yangi hisob rejasi talablari va tijorat banklari aktivlarini tasniflashning yuqoridagi aytilgan tartibi hisobga olindi.

Unda bank sarmoyasiga kattaroq talablar belgilanadi, yangi prudensial me'yorlar, shu jumladan, banklarning qimmatli qog'ozlar va investitsiyalar bilan o'tkazadigan operatsiyalari bo'yicha, bir omonatchiga to'g'ri keladigan eng yuqori tavakkalchilik bo'yicha me'yorlar kiritildi.

Bank tizimini bozor iqtisodiyoti talablariga muvofiq isloh qilish iqtisodiyotni isloh qilish bilan uzbek bog'lanib ketadi. Respublikada o'tkaziladigan keng ko'lamdagi xususiy lashtirish dasturi iqtisodiy faollikning, demak, bank kreditlari va xizmatlariga bo'lgan talabning oshishini ta'minlashi lozim.

O'zbekiston bank tizimining o'ziga xosligi shunda ko'rindiki, rasman muayyan ixtisosdagi (investitsiya, ipoteka, birja va boshqa) bank sifatida ro'yxatga olingan ko'pgina tijorat banklari vujudga kelgan holatga ko'ra universal bank sifatida faoliyat yuritishga majbur bo'lmoqda. Ko'pincha ular oddiy bank-kredit bitimlarini amalga oshirish bilan kifoyalanmoqdalar. Shu bilan birga qarz mablag'larini byudjetga jalb qilish maqsadida davlat qisqa va o'rta muddatli obligatsiyalari bilan borgan sari faolroq operatsiyalar o'tkazishga tortilmoqdalar.

Hozirgi zamonaviy raqamli iqtisodiyotda banklarni an'anaviy tarzda faoliyatning bank sohasi deb tushuniladigan tor doiradagi xizmatlar segmentida emas, balki moliyaviy xizmatlarining ko'p tarmoqli sohasida ish olib borishlarida o'z ifodasini topgan yangi voqelikni hisobga olinishini e'tibordan chetda qoldirmasliklari zarur. Moliyaviy xizmatlar sohasidagi o'zgarishlar bugungi kunda texnologiya, foiz xatari, mijoz uchun raqobat, sarmoya adekvatligi kabi asosiy tushunchalar bilan bog'liq.

Tijorat banklari xizmatlari bozorlarida qarz mablag'larini shakllantiruvchi, tartibga soluvchi va boshqaruvchi eng muhim elementlaridan biridir. Shu munosabat bilan ular zimmasiga sarmoyalarning saqlanishi va ko'paytirilishini, pullarning samarali ishlarga solinishini, demak, zarur daromadlar olinishini ta'minlash vazifasi yuklatiladi.

Tijorat banklari o'z mijozlarining asosiy agenti, ya'ni ishonch bildirgan shaxsning topshiriqlarini bajaruvchisi, ular mablag'larining bosh tasarrufchisi, aksiyalar hamda bankdagি hisobvaraqlar egalari aksariyat ko'pchiligi uchun eng yaqin maslahatchi va eksperti hisoblanadilar. Shuning uchun banklar asosiy iqtisodiy, moliyaviy masalalar hamda shu bilan bog'liq yuridik muammolarni chuqr va juda yaxshi bilishi, rivojlangan axborot-tahlil bazasiga ega bo'lishi va ayni paytda o'z vazifalariga taalluqli har qanday so'rov bo'yicha konkret yordam bera olishi lozim.

Juda katta o‘z sarmoyasiga ega bo‘lgan tijorat banklari yirik investor sifatida chiqishlari, ya’ni umuman xalq xo‘jaligi rivojiga bevosita ta’sir ko‘rsatishlari ehtimol tutilgan tarkibiy qayta ko‘rish ishlariga aralashishlari va hatto iqtisodiyot sho‘balarining istiqbollarini belgilashlari mumkin.

Foydalanaligan adabiyotlar ro’yxati:

1. Qudratova, G. M. (2025). TEXNOLOGIK PARKLARNING MINTAQА INNOVATSION RIVOJLANISHINI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI. *YANGI O'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(8), 170-178.
2. Sodiqova, N. (2025). IQTISODIYOT FANLARINI O'QITISHDA TALABALAR TEHNIK TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING AMALDAGI HOLATI VA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI. "ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ" международный научно-методический журнал, 2(19).
3. Bahodirovich, K. B. (2025, April). STRUCTURE OF THE CASH FLOWS STATEMENT. In *CONFERENCE OF MODERN SCIENCE & PEDAGOGY* (Vol. 1, No. 1, pp. 325-330).
4. Алимова, И. А. (2025). УСТОЙЧИВЫЕ ЦЕПОЧКИ ПОСТАВОК: ОТ ТРЕНДА К НЕОБХОДИМОСТИ РАСПРОСТРАНЕННАЯ ВЕРСИЯ. *Modern Science and Research*, 4(5), 76-81.
5. Toshov, M. H. (2025). SANQAT KORXONALARIDA MEHNATGA HAQ TO'LASH TIZIMINI BOSHQARISH. *Modern Science and Research*, 4(4).
6. Azimov, B. (2025). METHODS AND MODELS FOR ASSESSING THE SOCIO-ECONOMIC EFFICIENCY OF REGIONAL INNOVATION INFRASTRUCTURE. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(3), 685-691.
7. Ikromov, E. I., & Safarova, J. (2025). O'ZBEKISTONDA YASHIL TADBIRKORLIKNI HUDUDLARDA RIVOJLANTIRISHI ISTIQBOLLARI. *Modern Science and Research*, 4(4), 421-428.
8. Raxmonqulova, N. O. (2025). DEVELOPMENT OF THE DIGITAL ECONOMY ON A GLOBAL SCALE AND THE EXPERIENCE OF COUNTRIES. *SHOKH LIBRARY*.
9. Shadiyev, A. X. (2025). MINTAQANING IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI BOSHQARISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(7), 145-150.

10. Naimova, N. (2025). THE IMPACT OF GLOBALIZATION ON MODERN ECONOMIC PROFESSIONS. *Journal of Multidisciplinary Sciences and Innovations*, 1(2), 153-155.
11. Bazarova, M. (2025). FEATURES OF ASSESSING THE EFFECTIVENESS OF INNOVATION RISK MANAGEMENT OF AN EDUCATIONAL ORGANIZATION IN THE PROCESS OF DIGITAL TRANSFORMATION OF ACTIVITIES. *Journal of Multidisciplinary Sciences and Innovations*, 1(2), 161-164.
12. Jumayeva, Z. (2025). THE ROLE OF MICROECONOMIC ANALYSIS IN ENHANCING ECONOMIC EFFICIENCY THROUGH MARKET EQUILIBRIUM ANALYSIS. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(3), 634-637.
13. Bobojonova, M. (2025). GREEN ENTREPRENEURSHIP IN UZBEKISTAN AND ITS OPPORTUNITIES. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(3), 592-595.
14. Jumayeva, Z. (2025). THE FORMATION OF THE GREEN ECONOMY CONCEPT, STAGES OF DEVELOPMENT AND ITS RELEVANCE. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(3), 262-266.
15. Ibragimov, A. (2025). TAX POLICY AND IMPACT ON ECONOMIC DEVELOPMENT. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(3), 259-261.
16. Djurayeva, M. (2025). ISSUES OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP DEVELOPMENT. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(3), 596-598.
17. Umarova, H. (2025). RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA KORXONA RISKLARINI BOSHQARISH VA BAHOLASH AMALIYOTI T AHLILI. *Modern Science and Research*, 4(5), 158-161.
18. Aslanova, D. (2025). CHALLENGES OF IMPLEMENTING MODERN MANAGEMENT PRINCIPLES IN THE TOURISM INDUSTRY. *Journal of Multidisciplinary Sciences and Innovations*, 1(2), 119-121.
19. Rajabova, D. (2025). SPECIFIC FEATURES AND FACTORS OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THE INNOVATIVE ENVIRONMENT IN INDUSTRIAL ENTERPRISES. *Journal of Applied Science and Social Science*, 1(2), 474-479.
20. Игамова, Ш. З. (2024). МЕТОДИЧЕСКИЕ РЕКОМЕНДАЦИИ ПО ФОРМИРОВАНИЮ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИННОВАЦИОННОГО

развития ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНЫХ МАТЕРИАЛОВ. *Gospodarka i Innowacje.*, 43, 335-340.

21. Akramova, O. (2025). FOREIGN COUNTRIES IN EXPERIENCE INVESTMENT ATTRACTIVENESS INCREASE MECHANISMS AND UZBEKISTAN IN PRACTICE USE OPPORTUNITIES. *Journal of Multidisciplinary Sciences and Innovations*, 1(1), 395-398.
22. Jumayev, B. (2025). BIG DATA: CUSTOMER CREDIT ANALYSIS USING DIGITAL BANKING DATABASE. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(2), 1056-1059.
23. Gafarova, D. (2025). INNOVATION POLICY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN: ACHIEVEMENTS AND PROSPECTS. *Journal of Multidisciplinary Sciences and Innovations*, 1(2), 165-167.
24. Raximova, L. (2025). DIRECTIONS AND PRIORITY FEATURES OF THE TRANSITION TO THE "GREEN ECONOMY". *Journal of Multidisciplinary Sciences and Innovations*, 1(2), 156-160.